

## SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Ilmiy rahbar: SamDChTI dotsenti O.I. Yadgarova  
SamDChTI, Ingliz fakulteti talabasi A. X. Norjigitova*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxs va uning shakllanishi jarayonlari psixologik nuqtayi nazardan atroflicha tahlil qilinadi. Shaxs tushunchasining mazmuni, uning rivojlanish bosqichlari va asosiy xususiyatlari yoritiladi. Ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi omillar — biologik, irsiy, va ijtimoiy muhitning o'rni batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, Freydning psixoanalitik yondashuvi, Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi va Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi singari asosiy psixologik nazariyalar ko'rib chiqiladi. Shaxs shakllanishida motivatsiya, emotsiyalar va o'zlikni anglash jarayonlarining ahamiyati alohida tahlil qilinib, ushbu jarayonlarning inson hayotidagi roli o'rganiladi. Maqola shaxs rivojlanishiga oid nazariy va amaliy ma'lumotlarni umumlashtirishga qaratilgan. Ushbu maqola Oliy o'quv yurtlarining talabalari va psixologiya faniga qiziquvchi barcha izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, psixologiya, shakllanish, rivojlanish bosqichlari, ichki va tashqi omillar, irsiyat, ijtimoiy muhit, endopsixika, ekzopsixika, o'zlikni anglash, Z.Freyd, E.Erikson, A.Maslou, psixologik nazariyalar.

**Abstract:** This article provides an in-depth psychological analysis of personality and its development processes. It explores the concept of personality, its developmental stages, and key characteristics. The article examines the factors influencing personality development, including biological, hereditary, and social environment aspects. Additionally, major psychological theories, such as Freud's psychoanalytic approach, Erikson's psychosocial development theory, and Maslow's hierarchy of needs, are discussed. The importance of processes like motivation, emotions, and self-awareness in shaping personality is analyzed, along with their role in an individual's life. The article aims to synthesize theoretical and practical insights on personality development. It is intended for university students and anyone interested in the field of psychology.

**Keywords:** personality, psychology, development, developmental stages, internal and external factors, heredity, social environment, endopsychica, exopsychica, self-awareness, Z.Freud, E.Erikson, A.Maslow, psychological theories.

Shaxs va uning shakllanishi insoniyat jamiyatining asosiy masalalaridan biri bo'lib, har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Har bir shaxs o'ziga xos bo'lib, u o'zining ma'naviy, psixologik va ijtimoiy jihatlari bilan jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan dunyoda shaxsning shakllanishi masalasi dolzarb bo'lib, bu jarayon oiladan, ta'lim-tarbiya muassasalaridan va atrof-muhitdan kelib chiqadigan turli omillar bilan chambarchas bog'liq.

Shaxsning shakllanishi nafaqat individual o‘shish, balki jamiyatning kelajak taraqqiyoti bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki barkamol shaxslarni yetishtirish har qanday jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, bu mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘rganishni talab qiladi. Ushbu maqolada shaxs tushunchasining mazmuni, uning rivojlanish bosqichlari va shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi.

“Shaxs” tushunchasi psixologiyada eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o‘rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo‘lgan aloqasi masalasini chetlab o‘tolmagan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Homo sapiens” – “aqlli zot” tushunchasini ozida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo‘lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e’tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan. Ch.Darvin ta’biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yu-zida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko‘proq biologik omillardan ko‘ra, ijtimoiy omillar ta’sirida ro‘y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o‘rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o‘rganishni taqozo etadi.<sup>1</sup>

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi betakror odam.<sup>2</sup>

A. V. Petrovskiyning “Umumiy psixologiya” kitobida shaxs tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: shaxs — bu individlararo munosabatlarning sub’ekti sifatida qaraladi. Petrovskiy shaxs tuzilishidagi tabiiy, organik tomonlar va holatlar uning ijtimoiy shart-sharoitlariga bog‘liq elementlar ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy (sosial) omil (faktor)ning, voqelikning ta’siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo‘lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan “ichki psixik” (“endopsixik” - yunoncha “endo” ichki degan ma’noni bildiradi) qismlarga ajratiladi, degan g‘oyani ilgari suriladi. Ushbu talqinga ko‘ra “endopsixika” shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi aks ettiriladi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan “endopsixik” aynan bir narsa degan tushunchani tasdiqlash yotadi, go‘yoki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning “ekzopsixik” qismi bo‘lsa shaxsning tashqi mushitiga

<sup>1</sup>U. Fayziyeva, N. Jumayev “Umumiy psixologiya” Buxoro – 2021 (120.b)

<sup>2</sup>SH. Baratov, L.Olimov, O.Avezov “Psixologiya nazariyasi va tarixi” darsligi Toshkent 2019 (478.b)



nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshi bo‘lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va ob‘ektiv munosabatini belgilaydi. “Endopsixika” o‘z navbatida shaxsning ta’sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo‘r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi.

“Ekzopsixika” esa o‘z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni va shu singarilarni qamrab oladi. Tabiiy omilga (asosga) ega bo‘lgan “endopsixika” biologik shart-sharoitlarga bog‘liqdir, aksincha, “ekzopsixika” ijtimoiy voqeliklar ta’siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog‘liq degan nazariyaning namoyandalari bo‘lmish Hozirgi zamon uzoq chet el (AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvesariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o‘sha ikkita asosiy omillarga, ya’ni biologik va ijtimoiy (sosial) voqeliklarning ta’siriga bog‘liq bo‘lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar. Ob‘ekt-sub‘ekt munosabatini belgilaydi.

“Endopsixika” o‘z navbatida shaxsning ta’sirlanishi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo‘r berish xislatlarini, ixtiyorsiz (ideomotor) harakatlarini va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi. “Ekzopsixika” esa o‘z tarkibiga xos munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, ustanovkalari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallangan bilimlarni qamraydi.<sup>3</sup>

Irsiy omil, ya’ni genetik faktorlar, shaxsning psixik va jismoniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu omil temperament, qobiliyatlar va sezgir-lik kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Temperament, insonning tug‘ilishdan boshlab ko‘rsatilgan xulq-atvori bo‘lib, biologik jihatdan irsiy o‘tadi. Ba’zi inson-lar faol va ijtimoiy bo‘lishi mumkin, boshqalari esa kamroq faollikni namoyon qilishi mumkin. Irsiy omil shuningdek, intellektual rivojlanishga ta’sir qiladi. Insonning qobiliyatlari genetik jihatdan mavjud bo‘lishi mumkin, ammo ularni rivojlantirish uchun to‘g‘ri muhit va ta’lim zarur. Ruhiiy holatga, masalan, stressga qarshi chidamlilikka ham genetik omil ta’sir qilishi mumkin.

Shuningdek, irsiy omil faqatgina muhit va tarbiya bilan birga shaxsning shakllanishiga yordam beradi. Shaxsning psixik holati va rivojlanishi genetik xususiyatlar va atrof-muhitning ta’siridan kelib chiqadi.

Jahon psixologiya fanida shaxsning kamoloti uning rivojlanishi to‘g‘risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo‘lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o‘rganishda turlicha pozisiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o‘ziga xos

<sup>3</sup> E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent – “Universitet” – 2002.

yondashuvga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sosiogenetik, psixogenetik, kognitiv, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko‘rinishi Zigmund Freydni shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda u jinsiy maylga (libidoga) bog‘liqdir.

Biologik nazariyaga qarama-qarshi bo‘lgan nazariya **sosiogenetik nazariya** hisoblanadi. Sosiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o‘zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. **Ijtimoiylashuv nazariyasiga** ko‘ra inson biologik tur sifatida tug‘ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta’siri ostida shaxsga aylanadi.<sup>4</sup>

Shaxsiyatning klinik nazariyasida o‘ziga xos o‘rin tutgan psixologlardan biri Erik Erikson (1902-1994) bo‘lgan. E. Erikson Germaniyada tug‘ilgan, 1927-1933-yillarda Vena shahrida Freyd bilan birga ishlagan, 1933-yildan esa AQShga ko‘chib o‘tgan. U ego-psixologiya kontseptsiyasining yaratuvchilaridan biri bo‘lgan. Uning nazariyasi epigenetik nazariya nomi bilan mashhur. Uning fikriga ko‘ra, shaxsiyatning rivojlanishi ijtimoiy olam bilan belgilanadi. U “shaxsiyatning identikligi” tushunchasini ilgari surgan va ushbu tushuncha ostida insonning atrofidagi ijtimoiy olam bilan ajralmas aloqasini bildiradigan markaziy sifatni nazarda tutgan. Ushbu sifatlar quyidagi parametrlar orqali ifodalanadi:

- insonning o‘ziga bo‘lgan markazlashuvida,
- ijtimoiy guruh bilan, uni atrofdagilar bilan identifikatsiyasida,
- insonning o‘z qiymatini va ijtimoiy rolini aniqlashida.

Nihoyat, gumanistik nazariya ham shaxsiyat haqida psixologik nazariyalar orasida muhim o‘rin tutgan. Bular orasida K. Rogers va A. Maslouning o‘zini-aniqlash nazariyasi hamda R. Meyning ekzistensial psixologiyasi alohida e’tiborni tortadi. Ushbu nazariyalarni qo‘llab-quvvatlovchilar shaxsiyatga jamiyatdagi hayot va faoliyat jarayonlarida yuzaga kelgan har qanday psixologik hosila sifatida, inson tajribasining rivojlanishi, ijtimoiy xatti-harakat shakllarining o‘zlashtirilishi mahsuli sifatida qaraydilar. Ushbu yo‘nalish vakillarining asarlarida tez-tez quyidagi fikr ilgari suriladi: insonda dastlabki gumanistik, altristik talablar mavjud bo‘lib, aynan shu talablar insonning xatti-harakatlari manbaini tashkil etadi.<sup>5</sup>

Umuman olganda, psixologiya sohasida shaxs va uning shakllanishi haqida turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ularning har biri insonning psixologik rivojlanishiga turli yondashuvlarni taqdim etadi. Sigmund Freydning psixoanalitik nazariyasi, shaxsning rivojlanishini id, ego va super-ego kabi psixik strukturalar bilan bog‘laydi va uning rivojlanishini jinsiy instinktlar va ichki ziddiyatlar bilan izohlaydi. Erik Erikson esa,

<sup>4</sup> I.Xalilova “Umumiy psixologiya” darsligi, Toshkent 2009.

<sup>5</sup> S.İ. Seyidov ve Prof. M.Ə. Hamzayev “Psikoloji” darsligi B a k 1 - 2007 (172-174-175 sayfalar)



shaxsning ijtimoiy va madaniy tajribalari asosida rivojlanishini, o'zining o'zgarmas va davriy bosqichlaridan o'tishi kerakligini ta'kidlaydi. Abraham Masloun esa, shaxsning o'zini o'zi amalga oshirishiga erishish uchun ehtiyojlar ierarxiyasini yaratgan va insonning psixologik rivojlanishini ma'naviy va jismoniy ehtiyojlarni qondirish orqali tasvirlagan. Har bir nazariya shaxsning rivojlanishiga o'ziga xos yondashuvni taqdim etadi, ammo ularning barchasi insonning o'zini anglash va o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirishi zaruriyatini ta'kidlaydi.

Quyida shaxsni rivojlantirish yuzasidan o'tkazgan mashg'ulotlarimizdan birini keltiramiz:

**Mashg'ulot nomi:** "Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi"

**Maqsad:** Shaxsning shakllanishi jarayonini tushunish, o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, va shaxsiy rivojlanish uchun aniq maqsadlar belgilash.

**Jarayon:**

1. Kirish (5 daqiqa):

Mashg'ulot boshlanishida, o'quvchilarga shaxsning shakllanishi haqida qisqacha tushuncha berildi. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar (oilalar, ta'lim, ijtimoiy muhit, va shaxsiy tajriba) ko'rib chiqildi. Shaxs tushunchasi haqida fikr almashildi.

2. Faoliyat 1: "Kuchli va zaif tomonlar" (15 daqiqa)

Talabalar o'z kuchli va zaif tomonlarini yozib chiqdilar. O'quvchilarga quyidagi savollar berildi:

- Mening kuchli tomonlarim nimalardan iborat?
- Mening zaif tomonlarim nimalardan iborat?

Faoliyat yakunida talabalar o'z fikrlarini guruh bilan muhokama qildilar.

3. Faoliyat 2: "Maqsadlar belgilash" (10 daqiqa)

Har bir talaba o'zining qisqa muddatli (1 yil) va uzoq muddatli (5 yil) maqsadlarini yozdi. Bu maqsadlar aniq, o'lchanadigan va vaqtga bog'langan bo'lishi kerak edi. O'quvchilar o'z maqsadlarini o'qib berdi va guruh bilan muhokama qilindi.

4. Ilhomlantiruvchi voqea (5 daqiqa)

Shaxsiy rivojlanishdagi muvaffaqiyatlarga misollar keltirildi. O'quvchilar o'zlarini rivojlantirish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelganini va ularni qanday yengganini muhokama qildilar.

**Natija:** Shaxsning shakllanishi jarayonida har bir talabaga o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va shaxsiy rivojlanish maqsadlarini belgilashda yordam berildi. Talabalar shaxsiy rivojlanish uchun o'ziga xos reja tuzdilar va unga erishish yo'llarini belgiladilar.

**Mashg'ulot xulosasi:** Bugungi mashg'ulotda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy omillarni ko'rib chiqdik. Har bir inson o'z kuchli tomonlarini rivojlantirib, zaif tomonlarini yaxshilash uchun maqsadli ravishda

ishlashi lozim. Shaxsiy rivojlanish doimiy jarayon bo‘lib, har birimiz uchun o‘zgarishlarga ochiq bo‘lish va o‘z maqsadlarimizga erishish uchun imkoniyatlar yaratadi.

O‘zlikni anglash — bu insonning o‘zini, hissiyotlari, fikrlari va xatti-harakatlarini tushunish jarayonidir. Psixologik jihatdan, bu shaxsning o‘z kimligini, qadriyatlarini va maqsadlarini bilishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va qadr-qimmatini bilan bog‘liq. O‘zlikni anglash davomiy jarayon bo‘lib, shaxsning o‘zgarishlarga moslashuvi, o‘ziga nisbatan ongli bo‘lishi va ichki dunyosini qabul qilishi orqali shakllanadi. Bu jarayon psixologik farovonlik va muvaffaqiyat uchun muhim ahamiyatga ega.

Shaxs o‘zini-o‘zi anglashga qodir, ijtimoiy munosabatlarning sub’ekti, o‘zini-o‘zi anglash imkoniyatiga ega bo‘lgan ongli mavjudot sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, insonlar jamoasi, ijtimoiy tarixiy jarayonlarining ta’sirida kamolga etadi.

AQSH psixologi **G.Olportning** fikricha, shaxs: ichki tizim, “dinamik qurilma”, “men”, “qandaydir metapsixologik men”, o‘zida oldindan maqsad va dizpozitsiyani va aks ettiruvchi inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir”. Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy, tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o‘rnini psixologik talqin egallaydi.<sup>6</sup>

Xulosa qilib aytganda, shaxsning shakllanishi murakkab va ko‘plab omillarga bog‘liq jarayon bo‘lib, uning rivojlanishiga genetik faktorlar, ijtimoiy muhiti, ta’limi, o‘z tajribasi va psixologik holati ta’sir qiladi. Psixologiya shaxsning psixologik xususiyatlari va o‘zini anglash jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsning individual qarashlari, his-tuyg‘ulari va o‘zini anglashda o‘ziga xos dinamikalar mavjud bo‘lib, ular insonning salbiy va ijobiy tajribalari orqali shakllanadi. Shaxsning ichki dunyosi va uning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida ko‘rilishi kerak. Shu tariqa, shaxsning shakllanishi nafaqat biologik, balki psixologik va ijtimoiy faktorlarning o‘zaro ta’sirida sodir bo‘ladi. Kelajakda shaxsning shakllanishi yanada kompleks va dinamik jarayon bo‘lib, texnologiya, globalizatsiya va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar uning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U. Fayziyeva, N. Jumayev “Umumiy psixologiya” Buxoro – 2021 (120.b)
2. SH. Baratov, L.Olimov, O.Avezov “Psixologiya nazariyasi va tarixi” darsligi Toshkent 2019 (478.b)
3. E. G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Toshkent – “Universitet” – 2002.
4. I.Xalilova “Umumiy psixologiya” darsligi, Toshkent 2009.  
<https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/Umumiy%20psixologiya.%20Xalilova.pdf>

<sup>6</sup> Ilmiybaza.uz [https://ilmiybaza.uz/?utm\\_source=chatgpt.com](https://ilmiybaza.uz/?utm_source=chatgpt.com)

5. S.İ. Seyidov ve Prof. M.Ə. Hamzayev “Psikoloji” dersliđi B a k 1 - 2007 (172-174-175 sayfalar)
6. Ilmiybaza.uz [https://ilmiybaza.uz/?utm\\_source=chatgpt.com](https://ilmiybaza.uz/?utm_source=chatgpt.com)
7. Yadgarova O. I., Marjona B. SHAXSDA O ‘ZO ‘ZINI BAHOLASHNING AHAMIYATLI JIHATLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 68-71.
8. Yadgarova O. Shaxsni o‘rganishda proyektiv metodikalarning afzalliklari tahlili //Farg‘ona davlat universiteti. – 2023. – №. 1. – C. 149-149.

